



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI TOSHKENT
SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT SHAHRIDA
CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


*Dastlabki ma'lumot
2024 - yil yanvar- iyun*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 71-203-88-20(21)*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruvin qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024- yil 1-yanvar- iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 13 415 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 284 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 13 131 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024- yilning yanvar- iyun oylarida Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasi 40 209,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar- iyun oylariga nisbatan 108,4 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 18 096,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 111,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 22 112,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 105,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 173,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 122,8 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023- yil yanvar- iyun oyiga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	40 209,7	108,6
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	3 018,8	107,2
Bektemir	1 216,2	110,2
Yunusobod	3 627,6	104,9
Mirzo Ulug'bek	2 538,4	111,4
Mirobod	2 464,6	112,9
Shayxontohur	3 765,5	108,0
Olmazor	2 651,6	108,4
Sirg'ali	1 931,9	109,4
Yakkasaroy	3 392,9	111,7
Yashnobod	2 876,4	111,1
Yangihayot	468,1	107,9
Chilonzor	5 809,3	104,9


2024- yilning yanvar- iyun oylarida 2023- yilning yanvar- iyun oylariga nisbatan Toshkent shahrining Mirobod (112,9 %), Yakkasaroy (111,7 %) va Mirzo Ulug'bek (111,4 %) tumanlarida chakana savdo Tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar- iyun)



So'nggi 5 yillikda (2020–2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning mos davriga nisbatan 115,7 % ni tashkil qildi.

2024- yil uchun chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2024- yilning yanvar- iyun oylarida o'sish sur'ati **108,4 %** ni tashkil qildi.

HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI VA ULUSHI

4




Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Chilonzor tumani 17,9 % bilan 7 185,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Yangihayot tumani 1,4 % bilan 581,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023 - yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo Tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-iyun oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 22 112,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 5,9 % ga oshdi. Toshkent shahri miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 55,0 % ni tashkil etdi.

110,0	Yakkasaroy
110,3	Yangihayot
113,8	Bektemir
115,0	Mirobod
115,7	Shayxontohur
119,5	Mirzo Ulug'bek


Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 11,6 % ga o'sdi va 18 096,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 45,0 % ulushiga to'g'ri keldi.



102,1	Yangihayot
106,3	Shayxontohur
117,7	Uchtepa
126,2	Mirobod
127,3	Mirzo Ulug'bek
129,6	Yakkasaroy
139,0	Yashnobod

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Chilonzor (20,4%), Uchtepa (13,9%) va Yunusobod (11,0%) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 45,0% ni tashkil etib, eng katta ulush Chilonzor (14,8%), Shayxontohur (12,9%), Yakkasaroy (11,0%), Mirobod (11,0%) tumanlarida kuzatildi.

45,0 %



55,0 %



 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik



Hududlar kesimida ma'lumot, ming so'mda

Toshkent shahri

13 149,0

Yangihayot

3 275,4

Uchtepa

12 549,6

Chilonzor

26 081,2

Bektemir

24 589,6

Yunusobod

11 517,6

Mirzo Ulug'bek

9 047,5

Mirobod

20 585,1

Shayxontohur

12 228,9

Olmazor

7 381,5

Sirg'ali

15 462,7

Yakkasaroy


23 923,5

Yashnobod

10 972,0

2024- yilning yanvar- iyun oylari holatiga o'ttacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 13 149,0 ming. so'mni (2023- yilning yanvar- iyun oylariga nisbatan 105,6 %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Chilonzor (26 081,2 ming. so'm), Bektemir (24 589,6 ming. so'm) va Yakkasaroy (23 923,5 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024- yil yanvar- iyun), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023 - yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	1 058,6	123,5
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	57,5	57,7
Bektemir	242,8	116,7
Yunusobod	184,5	129,0
Mirzo Ulug'bek	139,3	2,5 m.
Mirobod	14,4	37,6
Shayxontohur	185,8	127,4
Olmazor	44,9	2,7 m.
Sirg'ali	35,0	117,4
Yakkasaroy	24,0	158,6
Yashnobod	108,5	5,5 m.
Yangihayot	-	-
Chilonzor	22,1	4,0 m.

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmag'an holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024- yil yanvar- iyun)




Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024- yil yanvar-iyun)

Toshkent sh.	1 173,5
Uchtepa	57,5
Bektemir	242,8
Yunusobod	184,5
Mirzo Ulug'bek	139,3
Mirobod	14,4
Shayxontohur	185,8
Olmazor	45,1
Sirg'ali	35,0
Yakkasaroy	24,0
Yashnobod	108,5
Yangihayot	-
Chilonzor	136,7

Toshkent shahari bo'yicha 2024- yilning yanvar-iyun oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 173,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 122,8 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 1058,6 mlrd.so'mni (123,5%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylan-masi hajmi 114,8 mlrd so'mni (116,2%) tashkil etdi .

2024-yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 880,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (460,2 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga hajmi va ulushi



2024- yilning yanvar-iyun oylarida, Toshkent shahrining Bektemir va Olmazor tuman hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 114 838,9 mln. so'mni (116,2 %) tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 98 460,8 mln.so'm, qo'y va echkilar – 14 121,7 mln. so'mni, otlar – 2000,8 mln. so'mni, parrandalar – 255,7 mln. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar 54 540,7 mln. so'm  4,6 %	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar 19 668,5 mln. so'm  1,7 %	1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar 24 251,6 mln. so'm  2,1 %
Qo'yilar 11 499,7 mln. so'm  1,0 %	Otlar 2 000,8 mln. so'm  0,2 %	Echkilar 2 622,0 mln. so'm  0,2 %
Kurka, o'rdak, g'oz 58,0 mln. so'm  0,005 %	Tovuqlar 29,4 mln. so'm  0,003 %	Quyonlar 108,8 mln. so'm  0,01 %
Qushlar 59,6 mln. so'm  0,005 %		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024- yil 1-yanvar- iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 4 828 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 76 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 752 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	4 749,4	115,4
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	91,2	110,3
Bektemir	86,0	129,8
Yunusobod	628,8	118,3
Mirzo Ulug'bek	496,2	117,4
Mirobod	375,9	113,0
Shayxontohur	1 194,4	112,3
Olmazor	269,9	109,5
Sirg'ali	346,3	112,7
Yakkasaroy	436,3	112,6
Yashnobod	297,6	113,1
Yangihayot	76,3	144,2
Chilonzor	450,4	125,7

2024- yilning yanvar-iyun oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 4 749,4 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilning mos davriga nisbatan 115,4 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 60,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Toshkent shahri	26 492,7	100,0
<i>tumanlar:</i>		
Uchtepa	575,0	2,2
Bektemir	1 337,7	5,0
Yunusobod	3 637,5	13,7
Mirzo Ulug'bek	851,9	3,2
Mirobod	3 978,7	15,0
Shayxontohur	2 730,3	10,3
Olmazor	320,9	1,2
Sirg'ali	8 620,9	32,5
Yakkasaroy	1 526,7	5,8
Yashnobod	1 070,1	4,0
Yangihayot	765,3	2,9
Chilonzor	1 077,7	4,1


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Sirg'ali (8 620,9 mlrd. so'm), Mirobod (3 978,7 mlrd. so'm) va Yunusobod (3 637,5 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so'm)




2024- yilning yanvar-iyun oylarida avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 26 492,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 30,9 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 8 858,8 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 162,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – 17 633,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – 119,2 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi,
mlrd. so'mda

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishslash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.



Toshkent shahari bo'yicha 2024- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 81 503,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 9,1 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

36,9 %

30 052,2 mlrd. so'm

Yirik korxonalar

63,1 %

51 451,2 mlrd. so'm

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 51 451,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,4 % ga to'g'ri keldi. Toshkent shaharida ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 63,1 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024- yil 1- yanvar-iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 16 425 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 224 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 16 201 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Bektemir (131,3 %), Mirobod (115,2%) va Yangihayot(112,3 %) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Toshkent shahri tumanlar:	81 503,4	109,1
Uchtepa	4 514,7	110,4
Bektemir	1 396,4	131,3
Yunusobod	8 098,5	110,7
Mirzo Ulug'bek	7 162,4	112,2
Mirobod	9 353,6	115,2
Shayxontohur	4 978,1	106,6
Olmazor	11 048,2	106,5
Sirg'ali	3 570,3	106,3
Yakkasaroy	9 978,7	105,5
Yashnobod	10 890,5	108,0
Yangihayot	1 718,5	112,3
Chilonzor	8 793,4	106,0